

IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING FALSAFIY ASOSLARI

*Usnatdinov Azamat Sipatdin uli, Qoraqalpoq davlat
universiteti o'qituvchisi*

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL ACTIVITY IN THE FORMATION OF SOCIAL RELATIONS

Usnatdinov Azamat Sipatdin uli, Lecturer at Karakalpak State University

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

*Уснатдинов Азамат Сипатдин улы, преподаватель Каракалпакского
государственного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy faollik va ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalaridagi o'zaro aloqadorligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqola tayyorlash jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda ilmiy xulosalari tahlil qilinib, mualliflik yondashuvi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy faollik, ijtimoiy munosabatlar, qiziqish, bilish, maqsad qo'yish, falsafiy tahlil, faoliyat, ijtimoiy bog'liqlik, ijtimoiy aloqa.

Abstract: This article provides a socio-philosophical analysis of the interrelationship between social activity and social relations in the social, economic, political, and cultural spheres. In the process of preparing the article, the theoretical perspectives and scholarly conclusions of domestic and foreign researchers were analyzed, and the author's approach was substantiated.

Keywords: society, social activity, social relations, interest, cognition, goal-setting, philosophical analysis, activity, social interconnectedness, social interaction.

Аннотация: В данной статье социально-философски анализируется взаимосвязь социальной активности и социальных отношений в социальной, экономической, политической и культурной сферах. В процессе подготовки статьи были проанализированы теоретические взгляды и научные выводы отечественных и зарубежных ученых, а также обоснован авторский подход.

Ключевые слова: общество, социальная активность, социальные отношения, интерес, познание, целеполагание, философский анализ, деятельность, социальная взаимосвязанность, социальная коммуникация.

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida ijtimoiy faollik masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda ongli ishtiroki orqali namoyon bo'lib,


ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Aynan shu jihat ijtimoiy faollik va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur falsafiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Inson o'z hayot faoliyatining barcha bosqichlarida boshqa insonlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. O'z ehtiyoj va



<https://orcid.org/0009-0006-6387-1817>

e-mail:

Azamat.usnatdinov@gmail.com



manfaatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida u jamiyat a'zolari bilan hamkorlik qilishga, turli ijtimoiy munosabatlar tizimida ishtirok etishga majburdir. Shu ma'noda, insonning jamiyatdan tashqarida yakka holda mavjud bo'lishi mumkin emas. Jamiyat doirasida yashar ekan, shaxs o'zining ijtimoiy faolligini namoyon etadi va aynan shu faollik orqali ijtimoiy hayot jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday sharoitda ijtimoiy faoliyatning mohiyatini, uning tabiati hamda jamiyat va shaxs hayotidagi o'rnini ilmiy asosda ochib berish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalani tahlil etishda uning ayrim metodologik va nazariy jihatlariga e'tibor qaratish zarur. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiy faollik" tushunchasining mazmunini aniqlash borasida yagona va umumqabul qilingan yondashuv mavjud emas. Shu sababli, ushbu tushunchaning mohiyatini ochib berish va unga nisbatan mavjud qarashlarni umumlashtirish mazkur tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy faollik shaxs qiziqishlarining amaliy harakatga aylanishi bilan bog'liq bo'lib, bilish, maqsad qo'yish va voqelikni o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatda namoyon bo'ladi. U shaxsning jamiyatdagi faoliyati xususiyatini ifodalovchi tushuncha sifatida obyektiv ehtiyojlar, mavjud shart-sharoitlar va insonning faol tabiati o'rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Ijtimoiy faollik tasodifiy emas, balki tarixiy zaruriyat asosida shakllanib, maqsadli subyekt tomonidan yangi ijtimoiy shakllar va yashash sharoitlarini yaratish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, u shaxsning talablar, qiziqishlar, qarashlar va ideallar tizimi orqali ijtimoiy jarayonlar dinamikasiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishida inson omilining ahamiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy faoliyatni va uning tabiatini tahlil qilishning metodologik asosi dialektik materializm da faoliyatning materiyaning universal xususiyati sifatida talqin etilishiga borib taqaladi. Falsafiy adabiyotlarda bu yondashuv yetarlicha asoslangan bo'lib, faoliyat materiyaning uzluksiz, o'z-o'zidan harakatga kelish qobiliyati sifatida

izohlanadi. Mazkur talqinga ko'ra, harakat materiyaning ajralmas atributi hisoblanadi. Ushbu fikrni rivojlantirgan V.G.Mordkovich faoliyatni o'zaro ta'sir shakli sifatida talqin etib, uni umumiy falsafiy ma'noda jonsiz obyektlarga xos xususiyat sifatida ham tushunish mumkinligini ta'kidlaydi.

Ya.F.Askin faoliyatni barcha materiyaga xos xususiyat atribut sifatida qarab, uning faol tamoyili sifatida ko'rib, "materiya mavjudligining umumiy shakli, uning faolligini ifodalovchi harakatdir: o'zaro ta'sir, moddalarning o'zgarishi, rivojlanishi" deya alohida ta'kidlaydi. Xuddi shunday qarashni B.S.Ukrainsev, A.M.Korshunov, V.V.Montanov va boshqalar qo'llab-quvvatlaydilar.

Faollikni materiyaning atributiv xususiyati sifatida e'tirof etish materiyaning turli harakat shakllariga muvofiq tuzilishi va rivojlanishining turli darajalarida uning ko'rinadigan bo'lish xususiyatlarini va o'ziga xosligini e'tirof etish zarurligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, avvalo, jonsiz, jonli tabiat va jamiyatdagi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda ijtimoiy munosabatlar tarkibida ijtimoiy faollik masalasining o'rnini qanday, degan savol paydo bo'lishi tabiiy, bunda eng avvalo ijtimoiy aloqalarga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi.

Ijtimoiy bog'liqlik – bu bir tomonlama ijtimoiy subyektlarning boshqalarga ongli yoki ongsiz, zaruriy va tasodifiy, doimiy va o'z-o'zidan bo'lgan bog'lanishlari yig'indisidir. Ijtimoiy aloqalar ko'p jihatdan guruh tomonidan tan olingan me'yorlar va qadriyatlarni hisobga olgan holda odamlarning moslashuvchan xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy aloqaning maqsadi shaxs yoki guruhning har qanday ehtiyojlarini qondirishdir. Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy aloqalar yanada murakkablashadi. Ijtimoiy aloqaning paydo bo'lishining boshlang'ich nuqtasi muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun shaxslar yoki shaxslar guruhining o'zaro ta'siridir.

Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy shakllarda namoyon bo'lsa-da, ular jamiyat hayotida alohida-alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'liq holda, yaxlit tizim sifatida amal qiladi. Insonlarning ijtimoiy hayotdagi faoliyati jarayonida mazkur munosabatlar bir vaqtning o'zida va bir-birini to'ldirgan holda ro'yobga chiqadi. Shu ma'noda, ijtimoiy

munosabatlarni faqat obyektiv turmush sharoitlariga yoki alohida sohalarga qisqartirib talqin etish biryozqlama yondashuv hisoblanadi. E.D.Modrjinskayaning ta'kidlashicha, "Turmush tarzi ko'p qirrali va murakkab tushuncha bo'lib, u muayyan tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish sharoitida kishilarning ijtimoiy munosabatlari hamda ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridagi faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi".

Boshqa mualliflar, xususan L.A.Gordon va E.V.Klopov, ijtimoiy munosabatlarni shaxs va guruhlarining kundalik xulq-atvorining turli shakllari kombinatsiyasi sifatida talqin qiladilar. Ko'pchilik tadqiqotchilarga ko'ra, ijtimoiy munosabatlar faoliyatning zaruriy xususiyatlari majmuini tashkil etadi. Shaxsning ijtimoiy faolligi uning ijtimoiy subyekt sifatidagi ko'rsatkichidir va shaxs mohiyatini, ijtimoiy faoliyatining butun boyligini ochib beradi.

Shaxsning ijtimoiy faolligi uning individual turmush tarzining asosiy xususiyati bo'lib, dunyoqarash va hayotiy pozitsiya orqali faoliyat va turmush tarzining ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Bu esa shaxsning bilimlari, qarashlari va e'tiqodlari, dunyoni idrok etish usuli va tabiatiga bog'liq. Ayniqsa, dunyoqarash shaxsning kundalik ehtiyojlari, manfaatlari yoki jamiyat va sinfnning talablariga asoslangan holda shakllanishi mumkin.

Shaxs ruhiy olamining markazi dunyoqarash bo'lib, uning o'zagi hayot maqsadi va mazmunini anglashdir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy faoliyat hayot maqsadlarini amalga oshirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi va shaxsning ijtimoiy faolligi uning hayot tarzining eng muhim belgisi hamda

yo'nalishini belgilovchi asosiy mezon sifatida ko'riladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy faoliyat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro uzviy va ko'p qirrali bo'lib, ular shunchaki shaxsiy faoliyat bilan cheklanmaydi. Turmush tarzi ijtimoiy faoliyatni shakllantirish va amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Turmush tarziga ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy faollik rivojlanishini kuzatish, aksincha, ijtimoiy faollik shakllanishi orqali turmush tarzining o'zgarishiga ta'sir qilish mumkin. Aniq tarixiy jamiyat, sinf va ijtimoiy guruhlarining turmush tarzi umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, har birining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro ta'siri mavjud. Shu munosabat bilan ijtimoiy munosabatlar subyektiv ifoda shaklini oladi va ma'lum ijtimoiy subyektning turmush tarzini aks ettiradi. Natijada, jamiyatning turmush tarzi doirasida sinf va shaxs turmush tarzi o'zaro bog'langan iyerarxik tizim sifatida amalga oshadi. Bu esa ijtimoiy faoliyat va munosabatlarning bir-birini to'ldiruvchi, dinamik va tizimli xarakterini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. P.D.Seitov. Filosofiya'ga kirisiw. 1- bólim lekciya ushin materiallar. Nókis Bilim baspası, 1992.
2. A.K.Berdimuratova. (Filosofiya oqıw qollanba). Nókis, Qaraqalpaqstan, 2010.
3. Туленов.Ж. Диалектика назарияси. Т., 2000.
4. Модржинская Е.Д. Социологические аспекты национального суверенитета М.: 1970.

